

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA MUSIQA TA'LIMNING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

Yalg'asheva Gulbahor Zafar qizi

Samarqand viloyati Ishtixon tuman 5-DMTT, Musiqa rahbari

ANNOTASIYA

Maqolada maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning musiqa ta'limi faoliyatlari, jumladan didaktik o'yinlar orqali musiqiy bilim berish va ularni qo'llash usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Axborot-kompyuter taxnologiya (AKT), prezentasiya, animasiya, musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqiy – didaktik o'yin.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkilotida, ya'ni kichik yoshdagi bolalarni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda musiqaning o'zni beqiyosdir.

Prezidentimiz ham *“Kuy, qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg'u asbobi bo'lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag'a bo'lmaydi ”* - deya musiqiy madaniyatning tarbiyaviy kuchiga yuksak baho beradilar. Ajdodlarimiz ham musiqiy tarbiyaning tarbiyaviy kuchiga alohida e'tibor bilan qarashgan. MTT yoshdagi bolalarga berilayotgan musiqiy ta'limning sifati, samaradorligi butkul musiqa rahbari zimmasida bo'lib, uning o'z kasbini sevishiga, pedagogik mahoratiga, izlanuvchanligiga, fidoiyligiga, o'z mas'uliyatini qay darajada his etishiga bog'liq. Bu sharaflı vazifani bajarishda unga tashkilot tarbiyachilari ham yaqindan ko'makdosh sanaladi. Har bir musiqa rahbari musiqiy tarbiya berishda tarbiyalanuvchilarni egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar mezonı talablarini yaxshi bilishi hamda mashg'ulotlar shu mezonlar asosida va darajasida bo'lishini ta'minlashi kerak. Shunday ekan kichkintoylarning har tomonlama rivojlantirishda musiqa mashg'ulotining munosib o'zni borligini hisobga olgan holda dasturlarni shunga mos ravishda tayyorlashi lozim.



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Musiqqa san'ati insonning yoshligidan kuchli ta'sir o'tkazib, uning umumiy madaniy rivojida katta o'rin tutadi. Jamiyat madaniy hayotida yanada kengroq o'rin tutayotgan musiqqa- kishiga butun hayoti davomida uning doimiy hamrohi hisoblanadi. Musiqqa san'ati inson yuragiga juda chuqur kirib borib, ana shu qalb tug'yonini yorqin ifodalash qudratiga ega. Demak, ajdodlarimizga munosib voris tarbiyalashda musiqaning alohida o'rni borligi ayni haqiqat, bolani har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashdek sharafli ishni to'g'ri yo'lga qo'yish biz pedagoglarga hamda bo'lajak kadrlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Yunon faylasufi Platonning fikricha, davlatning kuch-qudrati unda qanday musiqqa, qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga to'g'ridan – to'g'ri bog'liq. Davlat uchun insonni yuksaklikka ko'tarishga yordam beruvchi musiqqa kerak deb hisoblagan .

Musiqqa yoshlikdan uyg'ongan qiziqish kishining keyingi rivojida kuchli ta'sir o'tkazadi, ko'nikma va malakalarni shakillantiradi, yuksak ma'naviy didni o'stiradi. Musiqaning bola hissiyoti va shakillanishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta'sirini hisobga olganda haqqoniy va voqeylikni to'g'ri aks ettirgan musiqali asardan o'rinli foydalanish alohida o'rin tutadi. Musiqali obrazlar shakillanishining asosiy manbayi tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrof-olamdagi go'zallikni idrok etishiga bevosita bog'liqdir.

Ibn Sino ham musiqaning hissiy ta'sir kuchini e'tirof etgan holda uni o'zining tib kitoblarida aks ettirgan hamda ruhiy kasalliklarni davolashda shifo dasturi sifatida tavsiya qilgan. "Tib qonuni" asarida bir o'rinda musiqaning ruhiy ta'sir kuchiga baho berib, go'dakning tarbiyasidagi ahamiyatini shunday ta'riflaganlar: "Go'dakning tanasi chiniqishi uchun ikki narsa zarur: biri uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi onasining qo'shig'i (allasi). Birinchisi tanasiga, ikkinchisi – ruhiga tegishlidir".

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi, ertangi kun taraqqiyoti egalari bo'lmish bolalarni estetik va ma'naviy boy, tarbiyali shaxs sifatida tarbiyalash muhim masaladir. Bu maqsadni amalga oshirishda musiqaning ham alohida o'rni va o'ziga xos xususiyatlari bor. Maktabgacha tarbiya muassasalarida musiqiy tarbiya — bu bir aniq maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik rivojini amalga oshirish, bolani shaxs sifatida tarbiyalash, uni dunyoqarashini kengaytirish, o'z iqtidorini namoyon qila olishga,



musiqani his qilishga, ijodk etishga, musiqaga emotsional javob qaytara olishga o'rgatishdan iboratdir.

MUHOKAMA

Har bir mutaxasis bolaga musiqaning qaysi yo'nalishini o'rganishidan qat'iy nazar uning yosh xususiyatlarini, psixologik rivojini nazarda tutishi lozim. Unda uzluksiz davom etadigan bir butun ta'lim-tarbiya jarayonining belgilovchi ilk turi "maktabgacha ta'lim" deb ataladi. Birgina shu yondashuvning o'ziyoq tarbiyaga mehribonlik va adolat bilan qarashni talab etadi. Negaki, bugunki yosh avlodlarni XXI asrda kuchga to'lib, sog'lom, bilimli, aqlli bo'lib jamiyatimizning faol a'zolariga aylantirishdek ulkan vazifa musiqa rahbari va tarbiyachi zimmasida turibdi.

San'at insonparvarlik va odamiylik hamkorligi ruhida uning hissiyotini o'stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Hozirgi zamon yoshlariga estetik idroklarini tarbiyalash borasida g'amxurlik qilar ekanmiz, san'at bilan muomala qilishdan hosil bo'ladigan his-hayajondan uni o'z hayoti va faoliyatida foydalana olishga o'rgatishimiz kerak.

Bolalarda kichik yoshlik chog'idan musiqani idrok etish, his etish, turmush va san'atdagi go'zallikni ko'ra olish ishtiyoqi tarbiyalanadi va bu kabi go'zallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortadi. Unda badiiy-ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Musiqiy-estetik tarbiya demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak. Ma'lumki, bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatlarga jalb etish, musiqaga nisbatan estetik idrok etishni va emotsional o'zlashtirishni rivojlantirish, muhabbatni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatlarini o'stirish, musiqiy didni shakllantirish, bolalarning badiiy ijodkorligi hamda iqtidorini rivojlantirish kerak.

Musiqa — san'atning bir turi. U san'atning yana boshqa turlari bilan musiqa chambarchas bog'liqdir. Masalan: musiqa mashg'ulotlarini vokal, raqs, she'riyat (adabiyot), badiiy san'at, tasviriy san'at, va boshqalar bilan bog'langan xolda olib borish nazarda tutilgan. Bolalar ijrochiligi — tinglash, kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida ijroga o'rgatish va boshqa faoliyatlari hozirgi kunda o'zining dolzarbligi bilan ko'pgina pedagog-olimlarning diqqat markazidir. Shuning uchun biz kelajak avlodni musiqiy bilimga ega bo'lishlariga zamin yaratar ekanmiz, ularning musiqiy-estetik tarbiyalariga alohida e'tiborimizni qaratmog'imiz



zarur. Buning uchun «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'kidlab o'tilganidek, nafaqat bola shaxsi, balki musiqa rahbari shaxsini, uning ma'naviy-madaniy qiyofasini shakllantirishimiz, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, milliy-musiqiy an'analarimizga amal qilgan holda bo'lajak musiqa rahbarlarmizni yosh avlodni tarbiyalashga loyiq hamda munosib inson qilib shakllantirishimiz kerak. Albatta, boshlang'ich sinflarda ham musiqa fani kichik yoshdagi bolalar uchun eng qiziqarli fanlardan biri sanaladi. "Musiqia madaniyati" o'quv fanida ham kichik yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilub tayanch dastur ishlab chiqildi. Ushbu dasturda umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqiy ta'lim-tarbiyaga qo'yiladigan maxsus talablar ham dasturning asosiy qismlari qatoridan o'rin olgan. Unga ko'ra bolalarni musiqiy-estetik tarbiya uchun quyidagilarga rioya qilish kerak:

- Musiqiy faoliyatlarni atrof muhit hamda zamon bilan hamohangligi; - Musiqaning san'at sifatida o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;
- Bolalarning musiqiy rivojlanishlarida uzviylikni ta'minlash;
- Bolalarning qobiliyat va imkoniyatlaridan qat'i nazar ularning musiqiy tarbiyalariga qo'yiladigan majburiyatlar.
- Bolalarni quvnoq, g'amgin, yengil va vazmin musiqani tinglashga past va yuqori registri eshita olishga, musiqa tilini tushunishga, past ovozli va baland ovozli musiqaga mos chapak chalish orqali musiqa dinamikasini ajratishni o'rgatish;
- Kattalar ketidan musiqani taqlid qilib, intonatsion mos ravishda qaytara olish;
- Musiqia rahbari boshchiligida raqs harakatlarini bajarish;
- Kompozitorlar, musiqiy cholg'u asboblari haqida tushincha berish;
- Bolalarni musiqani diqqat bilan tinglashga o'rgatish, yengil va oson xalq qo'shiq hamda kuylarini musiqasiga mos ritmik harakatlar bajarib ijro etishga o'rgatish.

NATIJA

Musiqia rahbari quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

1. Musiqaga muhabbat va qiziqishni o'stirish.
2. Bolalarning musiqiy tajribasini boyitish (musiqiy asarlar asosida).
3. Bolalarni oddiy musiqiy tushunchalar bilan tanishtirish, musiqa tinglash, kuylash, musiqiy ritmikasi borasida malakalarni rivojlantirish.
4. Bolalarda emotsional hisni shakllantirish. Ularda lad hissi, ritm tuyg'usini o'stirish va harakatni o'tirish.
5. Musiqiy didni o'stirish (musiqiy taassurotlar asosida).



6. Bolalarda ijodkorlikni o‘stirish (barcha faoliyatlar asosida).

XULOSA

Musiqah rahbari o‘z dasturiga o‘zbek bastakorlarning bolalar uchun yozilgan kuy va qo‘shiqalaridan kiritishi lozim. Musiqiy asarlar bolalarning psixologik xususiyatlarini, ularning qiziqishlari va dunyoqarashlarini hisobga olgan holda tanlanishi kerak.

Frensis Galton o‘zining “Talentning tug‘maligi, uning Qonuniyatlari va oqibatlari” (1869) nomli kitobida “... buyuklik va iste’dod avloddan avlodga o‘tadi, muhit esa bunda ikkinchi darajali omildir...”, - deb aytgan. Biroq ko‘pgina mashhur ijrochilar buyuklikning sababi to‘qson foiz mehnatdandir va qolgan foizlarigina qobiliyatga bog‘liqligini ta’kidlashgan.

REFERENCES

1. G.Sharipova.G` .Najmekdinov Musiqah o`qitish metodikasi praktikumi
2. Apraksina.O.A.Maktablarda musiqiy tarbiyah metodikasi
3. D.Soipova Musiqadan o'qitish nazariyasi va metodikasi
4. M.S. Muxiddinova “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida aхборот-компьютер технологияларини муסיқа тарбияси воситаси сифатида қўллашнинг хусусиятлари” 2020 yil
5. Sh.R.Mahkamova “Имконияти чекланган болалар ва хар томонлама етук авлодни тарбиялашда муסיқанинг ўрни” 2020
6. M.A.Asadullaeva “Ёшларни маънавий тарбиялашда қўшиқчилик санъатининг тутган ўрни” 2020 yil
7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi: www.uzedu.uz
8. G.M.Sharipova.Musiqah o`qitish metodikasi
9. Ijtimoiy axborot ta’lim portali: www.ZiyoNET.uz
10. Mahkamova, S. R., & Shahzod, G. (2021). O ‘QUVCHILAR TARBIYASIDA MUSIQA FANINING TUTGAN O ‘RNI. *Scientific progress, 1(5)*.
11. Mahkamova, S. R., & Obidova, S. P. (2021). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА БОЛАЛАРНИ МУСИҚИЙ ТАРБИЯЛАШ ВА ТА’ЛИМ БЕРИШ. *Scientific progress, 1(3)*.
12. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). ХАЗРАТ НАВОИЙНИНГ МУСИҚИЙ ТАФАККУРИ. *Science and Education, 1(Special Issue 4), 215-222*.
13. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). МУСИҚА ИЛМИ ВА ИСЛОМ ДИНИ: ТАЛҚИН



МУАММОСИ. *Academic research in educational sciences*, (3).

14. Махкамова, Ш. Р., & Асадуллаева, М. А. (2020). «ВЕЛИКИЙ ШЁЛКОВЫЙ ПУТЬ»: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КУЛЬТУР ЗАПАДА И ВОСТОКА В КОНТЕКСТЕ ПРОБЛЕМЫ МОДЕРНИЗАЦИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Science and Education*, 1(Special Issue 4).

